

МУАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

4-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хам хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

4-сан 2023

июль

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

**Редактор:
А. Тилегенов**

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Асқарбай НИЯЗОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Нуржан МАТЧАНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Барлықбай ПРЕНОВ
Фархад БАБАШЕВ	Қаххор ТУРСУНОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Нурзода ТОШЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Амангелди КАМАЛОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Ризамат ШОДИЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Гавхар ЭШЧАНОВА

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ ЭДЕБИЯТ

Fayzullayeva D. U., Maxmudova M. O'qituvchilar tayyorgarligining mazmuni, tuzilishi va rivojlanish darajalarini belgilashda aqli texnologiyalarni qo'llash	6
Rashidova G. G'. Pedagogika fanini o'qitishda Alisher Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati	10
Пирматова А. В. Инглиз тилини ўрганишда нофилологик мутахассисликлар талабалари ўртасида мотивацияни шакллантириш	15
Xusanova G. T. Antonimlarni o'rganishning lisoniy va kognitiv jihatlarini	21
Ulasheva U. M. Badiiy adabiyot vositasi maqollar yordamida xorijiy til o'qitish metodikasini takomilllashtirishda zamonaviy metodlardan foydalanish	25
Кадырова Н. Семантика железнодорожных терминов в русском и узбекском языках	31
Файзуллаева З. Развитие коммуникативных навыков посредством интерактивных технологий	35
Мухаммедова О. А. Иностранный язык для студентов вузов задачи обучения	44
Azizova M. M. Analysis of the word "toast" meaning and cultural influence	49
Niyatova M. N. Modern technology as a means of teaching a foreign language	53

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Хамдамова М. Т. Талабаларда бошқарув маданиятини ривожлантириш технологияларини такомиллаштириш	59
Rizayeva S. D. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashuvning konseptual modeli	63
Эшбуриева М. У. Ривожлантирувчи таълим тизими шароитида касбий ва шахслараро мулоқотнинг ўрни	72
Maxkamova D. "Individual maslahat" didaktik resurslarining o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimiga tadbiq etish	76
Adizova N. B. Talabalarida korpus texnologiyalari asosida pragmatik kompetentsiyani shakllantirishning modeli	82
Azizova D. G'. Neft va gaz ishi asoslari fani negizida talabalarining muhandislik kompetentsiyalarini shakllantirish metodikasi	87
Ҳошимов И. Ўзбекистон республикаси умумтаълим мактабларида тарихий-маданий миллий меросдан фойдаланиш йўналишлари ва модели	92
Djalolova S. X. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyerani loyihalashtirish ko'nikmasini rivojlantirish ilmiy-metodik kuzatuvning pedagogik xususiyatlari	103
Холбозорова Н. Х. Педагогик касбига йўналтириш жараёнида талабаларнинг шахсий ривожланиши	112
Солиева М. Талабаларни дунёкарашини шакллантиришда бадиятнинг ўрни	120
Umirova N. M. Oliy ta'limda xorijiy tajribalarda sinalgan o'quv dasturlardan foydalanishning pedagogik asoslari	129
Abdisheripova Sh. B. Kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning tarixiy-pedagogik asoslari	134
G'ayipova G. N. Egra, egma xalqaro baholash dasturlari va ularning ahamiyati	138
Israilova Sh. J. Mustaqil ta'limda o'qish ko'nikmasini qo'llash orqali og'zaki nutqni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik, konseptual zaruriyati	142
Nasriddinov X. B. Ta'lim oluvchilarning kreativligi pedagogik muammo sifatida	146
Raximova F. N. Oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalari asosida talabalarining ijtimoiy pedagogik faoliyatini takomilllashtirish	152
Ravshanov O. A. Virtual psixologik xizmatni tashkil etishning vazifalari va afzalliklari	159
Qilichova M. X. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharof Rashidov asarlaridan foydalanishning o'ziga xosligi	169
Alifjonova M. Ekoestetik kompetentsiyani shakllantirishda xalq og'zaki ijodining o'rni va pedagogik ahamiyati	176



Pulatova M. K. Umumtaʼlim maktablari oʻqituvchilarida oʻquvchilarni oʻquv strategiyalariga (learning strategies) oʻrgatish koʻnikmalarini rivojlantirish	183
Aripov Z. Boʻlajak oʻqituvchilarni oʻzini ijodiy rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish	188
Saparboyeva D. S. Inson qadrini ulugʻlash xususiyatlari	193
Nazarova D. A. Klaster yondashuvi – inklyuziv taʼlim siyosatini amalga oshirishning muhim strategik mexanizmi	197
Терехова О. Е. Практическая готовность к профессиональной педагогической деятельности	204
Самиева Ш. Х. Инновационное развитие проектных навыков учащихся на основе креативного подхода	209
Ismatova N. The Significance of Toponyms: A Study of Cultural and Geographical Identity	216
Khasanova G. X. Organizational and pedagogical features of socio-cultural activities of graduate students	220

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Baratov B. Q. Boʻlajak oʻqituvchilarni uzluksiz maʼnaviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari	226
Qurbanov J. A. Boʻlajak oʻqituvchilarda intellektual madaniyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	238
Хошимов И. Тарихий-маданий миллий меросни сақлашда ўқитувчининг роли	249

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Эргашев Ж. Б. Электрон ахборот таълим ресурсларини лойиҳалаш технологиялари	258
Qurbanov A. Boʻlajak muhandis-elektriklarda intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish komponentlarining tarkibiy tuzilmasi	265
Ashurmatov R. Gʻ., Oʻtkirov Sh.X. Boʻlajak fizika oʻqituvchilarining metodik tayyorgarligiga oid muammolarning yechimlari boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar va ularning tahlili	273
Iskandarov B. Q., Muqimov Sh. I. Muhandis-talabalarni kasbiy tayyorgarligida zamonaviy axborot texnologiyalarining roli	279
Abdullayev Sh. A. Raqamli texnologiyalar bugungi kun taʼlim samarasi	283
Sattarkulov K. R. Akademik litseylarda kvant fizikasini oʻqitishni ehtimoliy-statistik asosida takomillashtirish	288
Kamolov E. R. Noaniq maʼlumotlarning murakkab biotexnologik sistemalarga xos boʻlgan asosiy koʻrinishlari va turlari	292
Азимова Ф. Х. Нефть-газ саноатига оид терминлар типологияси	298
Obidova G. K. Ekologik taʼlim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	307
Авларова Н. М., Азизова Д. Г., Номозов Б. Ю. Исследование процесса вытеснения газа водой и конденсатом из гидрофильных и гидрофобных пористых сред	312
Ражабов Ш. Проблема оптимального управления, связанная с экологическими проблемами	317
Muydinjonov D. R., Muydinjonov Z. R., Djurayev I. I. Home tutor for mathematics	326
Muydinjonov D. R., Muydinjonov Z. R., Djurayev I. I. Mathematical economics	330
Muydinjonov D. R., Muydinjonov Z. R., Djurayev I. I. Mathematics and statistics	338



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR BUGUNGI KUN TA'LIM SAMARASI

Abdullayev Sh. A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch soʻzlar: raqamli texnologiya, dars, internet, farmon, qaror, ta'lim tizimi.

Ключевые слова: цифровые технологии, урок, интернет, постановление, постановление, система образования.

Key words: digital technology, lesson, internet, decree, decision, education system.

Kirish. Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning borishi bevosita ta'lim tizimiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamyatga ega. Biz ilgari ta'lim dasturlarini an'anaviy usuli ya'ni ma'ruzani yirik xajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. Xozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan.

Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish



esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni. masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Online darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma'lum [4].

Bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimining asosiy vazifalari mazmunan boyib borishi, ijtimoiy vazifalarining takomillashib borishi taabiiy xolatdir. Ana shunday ijtimoiy vazifalardan biri, ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash va ulardan foydalanish bo'yicha o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishning barcha komponentlarini o'zida mujassamlashtiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish, bugungi axborot asrida tizimining bosh maqsadini tashkil etmog'i zarur. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, mamlakatimizda bir qator qonun hujjatlari va davlatimiz rahbarining farmon va qarorlari qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan: "...mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish bilan birgalikda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish hamda ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta'lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish" [1] kabi O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

Tadqiqot natijalari. Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta'lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil



etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, fribgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi [2].

Masalan, sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg'or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko'rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasida virtual o'quv muhiti va masofaviy ta'limning ta'minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo'lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo'ladi, ularni ta'minlovchi institutlar mas'uliyatini oshiradi va sun'iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo'ladi. Katta ma'lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyoti davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirishga davlatimiz rahbari tomonidan alohida e'tibor qaratilayotganligi, ta'lim tizimida ham raqamli texnologiyalarning o'рни va ahamiyati qanchalik yuqori ekanligini ko'rsatib bermoqda.

Bugungi globallashtirish jarayoni kechayotgan davrda, kundalik hayotimizni axborotkommunikatsion texnologiyalari, kompyuterlar va Internetsiz tasavvur qilish mushkuldir. Shuning uchun ham bugungi kunda raqamli texnologiyalar asta sekin kundalik hayotimizning barcha sohalariga kirib, ijtimoiy hayotning ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda. Aynan, ana shu muhim jihatni hisobga olgan xolda mamlakatimizda 10 dan ortiq texnika va raqamli texnologiyalar



yo,,nalishidagi mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o,,quv yurtlari faoliyatini yo,,lga qo,,yilganligi ham raqamli texnologiyalarning nafaqat iqtisodiyot, siyosat kabi sohalarda balki, ta'lim tizimida ham katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ommalashuvini asosiy sababi sifatida nafaqat pedagoglar uchun, balki, o'quvchilar uchun ham qulay bo'lgan tomonlarining mavjudligini ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, o'quvchilar o'zlari istagan xolda va xohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali biz quyidagi:

- pedagog kadrlar yetishmaydigan hududlarda ham o'quvchilarni onlayn yoki masofaviy shaklda ta'lim olishlari;
- o'qituvchi va o'quvchilarning internet tarmog'idan o'zlari istagan fanga oid ma'lumotlarni olish, izlash, tarqatish va undan foydalanish;
- tizimda raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida ta'lim samaradorligini oshirish, vaqt va mablag' sarfini kamaytirish;
- ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning shunchaki, fanlarni o'zlashtirishlari emas, balki ularning bilimlarni qay darajada o'zlashtirayotganligi va muammoli vaziyatlarga tayyorligi hamda ularda tanqidiy tafakkurni shakllanganligi, shuningdek, o'quvchilarning mustaqil o'z ustida ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirish kabi imkoniyatlarga ega bo'lamiz.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga faol kirib borayotganligining bosh omili bu darslarning sifatini ijobiy tomonga o'zgartirishdagi samaradorligi bilan alohida ahamiyat kasb etayotganligidir. Bunday sifat darajasini yanada yuksalirishda o'qitishning turli vositalari va raqamli texnologiyalarni qo'llashning yangi strategik loyihalarini ishlab chiqish hamda sohaga joriy etishning normativ-huquqiy hujjatlarini takomillashtirish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish muhim omil bo'lib xizmat qiladi [3].

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, birinchidan, o'qitishning samaradorligini ta'minlash, ikkinchidan, dars jarayonlariga oid turli ilyutratsiya, video roliklar, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlash, uchinchidan, o'qituvchi-pedagoglarning multimedia maxsulotlari, kompyuter texnikasi, Internet vositalaridan foydalanish va ularni dars jarayonida qo'llash malakalarini oshirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi xulosalarimizdan



kelib chiqib quyidagi: birinchidan, o'qituvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalanish malakalarini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz metodik xizmat tizimini yaratish; ikkinchidan, raqamli texnologiyalardan oqilona va maqsadli foydalanish hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilayotgan darslarga moslashuvchanlik qobiliyatini shakllantirish kabi zarur tavsiyalarga amal qilish talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi, Xalq so'zi 2020 yil 25 yanvar.
3. Xolmuxammedov M.M. "Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish". Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal. 2021. 6-son. 3-4-betlar.
4. Yuldashev U.A., Xudoyberdiev, M.Z., & Axmedov, T.B. (2021). O'quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.
//Academic research in educational sciences, 2(3), 1262-1268.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada muallif raqamli texnologiya, bulutli texnologiyalar, raqamli texnologiyani ta'lim tizimi vositalari, raqamli texnologiya ustunliklari, ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarb jihatlari va ahamiyatini nazariy asosda yoritib, o'z tavsiyalarini bergan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье автор изложил свои рекомендации, теоретически осветив цифровые технологии, облачные технологии, цифровые технологии как инструменты системы образования, преимущества цифровых технологий, актуальные аспекты и важность использования цифровых технологий в образовании.

SUMMARY

In this article, the author gave his recommendations, covering the current aspects and importance of digital technology, cloud technologies, digital technology educational system tools, digital technology advantages, the use of digital technology in education on a theoretical basis.